


Botanika instituti olimlari Janubiy Koreya Respublikasida

Janubiy Koreya Respublikasi Korea Research Institute of Bioscience and Biotechnology (KRIBB) direktorining taklifiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti "O'zbekiston florasini" laboratoriyasi mudiri akademik K.Sh.Tojiboyev hamda "Molekulyar filogeniya va biogeografiya laboratoriyasi" katta ilmiy xodimi Z.O.Yusupovlar joriy yilning 6-10 mart kunlari Korea Research Institute of Bioscience and Biotechnologyda o'tkazilgan seminarda ishtirok etishdi.

Akademik K.Sh. Tojiboyev KRIBB dagi seminarda ilmiy ma'ruza bilan qatnashdi (Janubiy Koreya)



Katta ilmiy xodim Z.O. Yusupov O'zR FA Botanika instituti Molekulyar filogeniya va biogeografiya laboratoriyasining imkoniyatlari va hamkorlik yo'nalishlari haqidagi ma'ruzasi (Janubiy Koreya).



Janubiy Koreya Respublikasi KRIBB laboratoriyalari



International Biological Material Research Centerdagi laboratoriya xonasi (Janubiy Koreya).



Shuningdek, seminarda Janubiy Koreya Respublikasi KRIBB va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti o'rtasida ilmiy kadrlar almashinuvini yo'lga qo'yish, institutlar o'rtasida tuzilgan yangi istiqbolli qo'shma loyihalar muhokama qilindi.